
QIMMATBAHQ METALLAR VA QIMMATBAHQ TOSHLAR
SOHASIDAN FOYDALANGAN HOLDA JINQIY FAOLIYATDAN
QLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH VA
TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISH
TAVAKKALCHILIKLARINI BAHOLASH BO'YICHA

2025-YIL HISOBOTI

Ommaviy nashr



Toshkent, 2026

Mundarija

Kirish	3
Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasi faoliyatining huquqiy asoslari	5
Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasining umumiy xususiyatlari	7
Tahdidlarning xususiyatlari	9
Zaifliklarning xususiyatlari	13
Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish sxemalarida sohadan foydalanish tavakkalchilik darajasi	14
Koʻrilgan (koʻrilayotgan) choralar	16
Xulosa	16

Kirish

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish - ya'ni jinoyat orqali topilgan mablag'larni yashirib, uni go'yoki halol daromaddek ko'rsatish, terrorchilik faoliyatlarini amalga oshirish uchun mablag' ajratish, hamda yadro, kimyoviy yoki biologik kabi juda xavfli qurollarni ishlab chiqarish yoki tarqatishga pul bilan yordam berish. Oddiy qilib aytganda, bu — noqonuniy yo'l bilan topilgan yoki berilgan pul orqali jamiyat va davlat xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'diradigan faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash yoki ularni yashirishdir.



O'zbekiston Respublikasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni milliy darajada baholash hisobotlari, shuningdek ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni milliy darajada baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, jinoyatlar sodir etilganda pul mablag'larining kelib chiqish manbalari, ularning harakati va yakuniy benefitsiar mulkdorlarni yashirish maqsadida turli xil murakkab va ko'p bosqichli usul hamda shakllardan keng foydalaniladi.

Mazkur JFDOL¹, TM² va OQQT³ vositasi sifatida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shuningdek ulardan yasalgan buyumlar qo'llanilishi mumkin.

Legallashtirish (qonuniylashtirish)ning bir yoki bir nechta bosqichlaridan o'tgan noqonuniy daromadlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shuningdek ulardan tayyorlangan zargarlik va boshqa buyumlarini xarid qilishga yo'naltirilishi mumkin.

Amaliyotda bunday tarzda xarid qilingan moddiy boyliklar, asosan, shaxsiy iste'mol maqsadlarida foydalaniladi. Shu bilan birga, qimmatbaho metallarni quyma yoki tanga shaklida, ularning barqaror qiymatga egaligi va naqdlashtirish imkoniyatining yuqoriligi sababli, jinoiy daromadlarni saqlash, ko'chirish va moliyalashtirish vositasi sifatida ham foydalanish mumkin.

Jinoyatchilarning jinoiy daromadlarni legallashtirish hamda ularni qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar orqali terrorizmni moliyalashtirish maqsadlarida qo'llash imkoniyatlarini cheklash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi [O'RQ-660-II-son Qonuniga](#) muvofiq, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan

¹ Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish

² Terrorizmni moliyalashtirish

³ Ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish

bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar uchun ichki nazorat qoidolari joriy etilgan.

Xususan, JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish bo'yicha [2034-sonli ichki nazorat qoidolari](#)da xabar qilinishi lozim bo'lgan shubhali operatsiyalarni aniqlash mezonlari va tartiblari, shuningdek mijozlarning tavakkalchilik darajasini baholash tartibi belgilangan bo'lib, mazkur talablar soha ishtirokchilari tomonidan majburiy tartibda amalga oshiriladi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida JFODL va TM bilan bog'liq dolzarb xavflarni chuqur tushunish tavakkalchiliklar darajasini to'g'ri baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lizing va auditorlik tashkilotlari faoliyatida, shuningdek, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar amalga oshiruvchi shaxslar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Ishchi guruh yig'ilishining 2025-yil fevraldagi 4-sonli Bayonnomasi 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidan foydalangan holda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish tavakkalchiliklarini baholash bo'yicha to'g'risida 2024-yil uchun hisobot" natijalariga ko'ra, mazkur sohada JFODL sxemalaridan foydalanish **xavfi yuqori**, TM xavfi esa nisbatan **past darajada** deb baholangan.

Hisobotda, xususan, zargarlik buyumlarining chakana va ulgurji savdosi, qimmatbaho metallarning parcha va chiqindilarini sotib olish, qimmatbaho metallarni qayta ishlash hamda zargarlik buyumlari ishlab chiqarish faoliyati JFODL sxemalarida ishtirok etish nuqtai nazaridan yuqori xavf toifasiga kirishi qayd etilgan.

Mazkur Tavakkalchiliklarni baholash hisoboti (keyingi o'rinlarda – Hisobot) 2023–2024-yillarda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida JFODL va TM tavakkalchiliklarini baholash natijalari, sohani tartibga solish tizimidagi o'zgarishlar, shuningdek Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan.

Hisobotni FATF⁴ hujjatlariga muvofiq turli manbalardan olingan ma'lumotlar, jumladan jinoiy tergov materiallari, soha faoliyatiga oid tahliliy ma'lumotlar, JFODL va TM tavakkalchiliklarining namoyon bo'lish shakllari, shuningdek tashqi manbalardan olingan materiallar keng qo'llanilgan.

Bundan tashqari, JFODL va TMga qarshi kurashish sohasidagi nazorat tadbirlari natijalari, shu jumladan masofaviy monitoring, soha ishtirokchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalari, huquqni qo'llash amaliyoti tahlili hamda internet tarmog'idan olingan ochiq ma'lumotlardan ham foydalanilgan.

Hisobot natijalari asosida olingan ma'lumotlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasi ishtirokchilariga xos bo'lgan dolzarb xavf va zaifliklarning ta'sir

⁴ Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (FATF) — jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida jahon standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi, shuningdek milliy tizimlarning ushbu standartlarga muvofiqligini baholashni amalga oshiruvchi hukumatlararo tashkilot

darajasini yetkazish, ularni kamaytirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, Hisobotda keltirilgan JFODL va predikat jinoyatlarini⁵ sodir etish usullari soha ishtirokchilariga o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ichki siyosat va tartib-taomillarni mavjud tavakkalchiliklarga moslashtirishda amaliy yordam beradi.

Mazkur Hisobot qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar aylanmasi bilan bog'liq operatsiyalarda bevosita ishtirok etuvchi subyektlar bilan bir qatorda ularga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, Hisobot JFODL va TMga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik talablarini tushuntirish, amaldagi tipologiyalarni yetkazish hamda tavakkalchiliklar to'g'risida xabardorlikni oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

QIMMATBAHO METALLAR VA QIMMATBAHO TOSHLAR SOHASI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning muomalada bo'lishi sohasidagi munosabatlarni va qimmatbaho toshlar to'g'risida O'RQ-710-sonli qonuni va unga muvofiq qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

Qimmatbaho metallar — har qanday ko'rinish va holatdagi, shu jumladan yombi va affinaj qilingan holatdagi, shuningdek xomashyodagi, qotishmalardagi, xomaki mahsulotlardagi, sanoat mahsulotlaridagi, kimyoviy birikmalardagi, qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlardagi, qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilaridagi, ishlab chiqarish hamda iste'mol parchalaridagi va chiqindilaridagi oltin, kumush, platina hamda platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy).

Qimmatbaho toshlar — tabiiy olmoslar, yoqutlar, zumradlar, sapfirlar, aleksandritlar, xom (tabiiy) va ishlov berilgan tarzidagi tabiiy marvarid. Qahraboning noyob hosilalari qimmatbaho toshlarga tenglashtiriladi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi (zargarlik, savdo faoliyati, affinaj va ishlab chiqarishda foydalanuvchilar) tadbirkorlik subyektlari Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi [88-son qaroriga](#)


⁵ **Predikat jinoyatlar** — jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish uchun manba bo'lib xizmat qiluvchi jinoyatlar.

asosan, o'z faoliyatini boshlaganligi haqida Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasini xabardor qilganini tasdiqlovchi, "[Litsenziya](#)" AT orqali avtomatik tarzda shakllantiriladigan, matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo'lgan elektron hujjat (Tasdiqnoma) asosida amalga oshirishlari shart.

Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda – Asillik inspeksiyasi) faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshirayotgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, tugatilgan xabardor qiluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan reyestirni ma'lumotlar bazasida muntazam shakllantirib boradi.

Xabarnomalar reyestrda xabardor qiluvchilarning faoliyat yuritayotganligi, faoliyati to'xtatilganligi, qayta tiklanganligi, tugatilganligi va boshqa holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Xabarnomalar reyestri "[Litsenziya](#)" ATda elektron shaklda yuritiladi va undagi ma'lumot barcha uchun ochiq hisoblanadi.



Ikkilamchi resurslar, parcha va chiqindilardagi qimmatbaho metallarni, shu jumladan, oltin izlovchilar usulida qazib olingan qimmatbaho metallarni affinaj qilish faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi [80-son qaroriga](#) muvofiq, Litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Litsenziyalar reyestri "[Litsenziya](#)" ATda elektron shaklda faoliyatning har bir litsenziyalanadigan turi bo'yicha alohida yuritiladi va undagi ma'lumotlar barcha uchun ochiq hisoblanadi.



Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi [O'RQ-660-II-son Qonun](#)ing 12-moddasi bilan Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar sirasiga kirishi va JFODL va TMga qarshi kurashish sohasida qonunchilik talablariga amal qilishlari lozimligi belgilangan.

QIMMATBAHO METALLAR VA QIMMATBAHO TOSHLAR SOHASINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

FATF global tarmog'ining ko'plab mamlakatlarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar alohida e'tibor sohasi hisoblanadi.


Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar aylanmasini tartibga solish zarurati uning ushbu sohadagi strategik manfaatlaridan, shuningdek, subyektlariga xos bo'lgan xavflardan bevosita kelib chiqadi.



Qimmatbaho metallar va toshlar sohasi — davlatning strategik zaxiralarini shakllantiruvchi, qiymati yuqori va tez realizatsiya qilinadigan boyliklar aylanmasiga asoslangan hamda qat'iy davlat nazorati (asillik darajasi nazorati, litsenziyalash) ostidagi maxsus iqtisodiy tarmoqdir. Bu soha xomashyoning noyoblighi, inflyatsiyadan himoya (xavfsiz aktiv) va jahon birja narxlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, u JFODL xavfi yuqori bo'lgani sababli xalqaro monitoring standartlari va maxsus huquqiy tartibga solish mexanizmlari asosida faoliyat ko'rsatadi.

Diagramma 1.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasi ishtirokchilarining Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi ma'lumotlari bo'yicha viloyatlar kesimida taqsimlanishi (yuborilgan xabarnoma va litsenziyalar soni)




Qadimdan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasi har qanday davlat iqtisodiyotida sezilarli mavqega ega bo'lib kelgan.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida tadbirkorlik subyektlari faol ishtirok etadi.

Sohaning respublika uchun dunyodagi yirik oltin qazib oluvchilardan biri sifatida strategik ahamiyati nafaqat moliya tizimining barqarorligini ta'minlaydigan, O'zbekiston Respublikasining oltin va valyuta zaxiralarini to'ldirish funksiyalari bilan, balki qimmatbaho metallarlarning eksportchisi sifatida jahon savdosiga jalb qilinishi bilan ham belgilanadi.

Soha mehnat bozorida fuqarolarining ko'p qismini ish bilan ta'minlashi bilan muhim rol o'ynaydi.

Diagramma 2.



2025-yil holatiga ko'ra, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida faoliyat yuritayotgan 2386 ta tadbirkorlik subyektlari (shu jumladan 487 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar) ro'yxatga olingan.


2-diagrammada soha ishtirokchilari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatning asosiy turlari ko'rsatilgan.

3-diagrammada 2023-2025-yillarda soha ishtirokchilari sonining dinamikasi keltirilgan.

Oldingi tavakkalchiliklarni baholash hisobotiga nisbatan soha ishtirokchilari soni qariyb 30 foizga ko'paygan.

Diagramma 3.

2022-2024-yillarda JFODL/TM subyektlari bo'lgan tadbirkorlik subyektlar tomonidan yuborilgan xabarnomalar dinamikasi



TAHDI DLARNING XUSUSIYATLARI

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasiga xos bo'lgan JFODL/TM tahdidi ostida davlat, jamiyat, iqtisodiyot, fuqarolarga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan va noqonuniy daromad olish bilan birga olib boriladigan faoliyat, noqonuniy daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, shuningdek ushbu faoliyat turlariga aloqador shaxs, tashkilot va ularning guruhlar yoki ishtirok etishi mumkin bo'lgan faoliyat tushuniladi.



Qimmatbaho metallar va toshlar sohasi o'zining yuqori qiymati, yuqori qiymatning kichik hajmda jamlanganligi hamda dunyoning istalgan nuqtasida oson realizatsiya qilinishi sababli JFODL/TM yo'nalishida o'ta yuqori xavf guruhiga kiradi. Ushbu sohada asosiy tahdidlar oltin va toshlarning anonim xarid qilinishi, ularni qayta eritish yoki ishlov berish orqali dastlabki manbasini butunlay yo'q qilish imkoniyati hamda kontrabanda yo'li bilan chegaralardan yashirincha olib o'tilishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, "mulk tilla" ko'rinishidagi ikkilamchi xomashyo aylanmasi noqonuniy mablag'larni qonuniy iqtisodiyotga aralashtirib yuborish uchun qulay sharoit yaratadi. Savdo operatsiyalarida narxlarni sun'iy ravishda manipulyatsiya qilish (oshirish yoki kamaytirish) esa jinoiy daromadlarni davlatlararo o'tkazmalarining yashirin vositasi bo'lib xizmat qiladi, bu esa soha ustidan qat'iy monitoring va "mijozni lozim darajada tekshirish" tamoyillarini qo'llashni talab etadi.

JFODL va TMga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar bo'yicha Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi (EAG⁶)ning ekspert baholovchilari missiyasiga asosan tayyorlangan O'zbekiston Respublikasining o'zaro baholash **2022-yilgi** hisobotida, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar Milliy tavakkalchiliklarni baholash jarayonida o'z ishtiroki va rolini aniq ko'rsatishda qiyinchilikka duch kelganliklari, shuningdek, JFODL va TM bilan bog'liq tavakkalchiliklarni o'rtacha darajada tushunishini namoyon etganliklari qayd etilgan.

⁶ Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi (EOG) — FATF tavsiyalariga hamda a'zo davlatlar ishtirokchisi bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga oid standartlariga muvofiq jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish xalqaro tizimida a'zo davlatlarning integratsiyasini, mintaqaviy darajadagi hamkorligini va samarali birgalikdagi faoliyatini ta'minlash bo'yicha faoliyat olib boruvchi FATFga o'xshagan mintaqaviy guruh. Uning ishtirokchi davlatlari: Belarus, Hindiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston. Yevroosiyo guruhida 15 ta davlatga hamda 22 ta xalqaro va mintaqaviy tashkilotga kuzatuvchi maqomi berilgan



Yakuniy baholash natijalariga ko'ra, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning o'z majburiyatlarini tushunish darajasi past ekanligi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yildagi o'zaro baholash hisobotida JFODL va TMga qarshi kurashish sohasiga oid hisobotlar, jumladan tavakkalchiliklarni baholash natijalari Asillik inspeksiyasiga taqdim etilmagani, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning ushbu sohaning JFODL va TM maqsadlarida foydalanilishi mumkin bo'lgan xavf va zaifliklari bo'yicha xabardorligi yetarli darajada emasligi ta'kidlangan.

Shu bilan birga, Asillik inspeksiyasining JFODL va TMga qarshi kurashish talablari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha mavjud resurslari (nazoratni amalga oshiruvchi xodimlar yetarli emasligi) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasining hajmi va tavakkalchilik darajasiga nomutanosib ekanini alohida ta'kidlab o'tilgan.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida JFODL va TM maqsadlarida foydalanish tahdidlarini batafsil bayon qilish uchun tekshiruvlar hujjatlari, huquqni muhofaza qilish organlarining ma'lumotlar, xususiy sektor va Asillik inspeksiyasi ixtiyorida bo'lgan boshqa ma'lumotlar har tomonlama tahlil qilindi.

Shu bilan birga, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidan JFODL maqsadlarida foydalanish qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, ulardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarini sotib olish-sotish doirasida qonuniylashtirishning bir yoki bir necha bosqichlaridan o'tgan JFODL vositasi sifatida ko'rib chiqilgan.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida **TM tahdidi pastligi**, bundan oldingi Tavakkalchiliklarni baholash hisobotlarida ham o'z tasdig'ini topgan.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasi ishtirokchilari terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq tahdidlarning past darajasi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, mazkur soha subyektlari mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida TM hamda OQQTM bilan bog'liq mavjud tavakkalchiliklarni baholashi, mijozlarni lozim darajada identifikatsiya qilishi, shuningdek ularning ma'lumotlarini TM yoki OQQTM aloqador shaxslar ro'yxatlari bilan muntazam ravishda solishtirib borishlari lozim.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shuningdek ulardan yasalgan buyumlar turli xil JFODL usuli sifatida sotib olinishi mumkin.

Turli xil ma'lumot manbalarini, shu jumladan jinoiy ishlar hujjatlari, JFODL oid ishlar bo'yicha sud qarorlari (hukmlari), nazorat (tekshiruv) natijalari, xususiy sektorda so'rovnomma o'tkazish asosida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida quyidagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlarni misol qilish mumkin:

TAHDID. qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidan jinoiy daromadlarni yashirish, ularni qonuniy ko'rinishga keltirish hamda terroristik faoliyatni moliyalashtirish maqsadida foydalanish ehtimoli va imkoniyati mavjudligi. Sohaning yuqori likvidligi, nisbiy anonimligi va tashish qulayligi kabi o'ziga xos xususiyatlari uni jinoyatchilar uchun jozibador vositaga aylantirib, undan suiiste'mol qilish.



Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasining jozibadorligi jinoiy daromadlarni tezkor va yo'qotishlarsiz sotib olish yoki sotish imkoniyati, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shuningdek ulardan yasalgan buyumlarni noqonuniy boyish manbasini yashirish usuli sifatida foydalanish imkoniyatidir.

Misol:

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish va milliy brendlarning jahon bozoridagi nufuzini yuksaltirish maqsadida davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarga sof oltin xomashyosi jahon birja kotirovkalaridan 4 foizgacha arzonlashtirilgan imtiyozli shartlarda sotilgan bo'lsa-da, ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan xarid qilingan ushbu qimmatbaho metall resurslaridan maqsadli foydalanish ta'minlanmagan.



Aniqlanishicha, korxona sof oltin xomashyosidan zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish o'rniga, minimal texnologik ishlov berish orqali tayyor mahsulot ko'rinishini yaratib, ularni tayyor zargarlik buyumlari sifatida rasmiylashtirgan hamda eksport operatsiyalari orqali chet elga chiqarishni yo'lga qo'ygan.

O'tkazilgan o'rganishlar natijasida eksport qilingan mahsulotlarning yakuniy iste'mol bozorlari zargarlik savdosi yoki chakana realizatsiya tarmoqlari emas, balki

qimmatbaho metallarni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar ekani aniqlangan.

Bu holat mazkur mahsulotlarning amalda badiiy yoki iste'mol qiymatiga ega emasligi, ularning asosiy maqsadi qimmatbaho metallni o'z asl iqtisodiy mohiyatini saqlagan holda eksport operatsiyalari orqali respublika hududidan olib chiqish bo'lganini ko'rsatadi.

Mazkur tizim davlat tomonidan taqdim etilgan imtiyozli resurslardan maqsadsiz foydalanish, qimmatbaho metallar harakatini nazoratdan chetlab o'tish hamda eksport

operatsiyalari niqobi ostida moliyaviy oqimlarning kelib chiqishini yashirishga qaratilgan amaliyot sifatida baholanadi. Natijada, ushbu faoliyat davlat iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazish va potentsial jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq yuqori tavakkalchilikka ega holat sifatida e'tirof etiladi.

Misol:

Respublika hududida 2025-yil holatiga affinaj faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari soni 22 tani tashkil etgan. Mazkur subyektlarning hududlar kesimidagi taqsimoti tahlil qilinganda, ularning asosiy qismi Toshkent shahri (9 ta yoki 41 foiz) hamda Navoiy viloyatida (6 ta yoki 27 foiz) jamlangan. Qolgan subyektlar esa boshqa hududlarda nisbatan kam ulushda faoliyat yuritmoqda.

Toshkent shahrida sohaning markazlashuvi yuqori darajada bo'lib, bunda mavjud sanoat bazasi, malakali kadrlar salohiyati hamda bozor infratuzilmasining rivojlangan. Navoiy viloyatida esa yirik konlar va qimmatbaho metallar qazib olinadigan hududlarga yaqinligi sababli affinaj faoliyati uchun tabiiy sharoitlar mavjud.

2025-yil davomida vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirlar, shuningdek monitoring va o'rganish ishlari natijasida Navoiy viloyatining oltin konlariga yaqin hududlarida ayrim jismoniy shaxslar hamda norasmiy guruhlar tomonidan noqonuniy ravishda qimmatbaho metall qazib olish va uni dastlabki qayta ishlash (affinajga o'xshash) jarayonlari amalga oshirilayotganligi aniqlandi.

Mazkur holatlar, asosan, qimmatbaho metall tarkibli rudalarni noqonuniy qazib olish, ularni primitiv usullarda qayta ishlash hamda qazib olingan rudalardan oltinni ajratib olish uchun maxsus tayyorlangan sun'iy havzalar (basseynlar) orqali ajratib olish bilan bog'liq ekani kuzatilgan.



Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasiga xos bo'lgan yuqorida keltirilgan xavf, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida vijdotsiz ishtirokchilariga uning infratuzilmasini "soyali" sxemalarda foydalanishga, noqonuniy yo'llar bilan topilgan katta miqdordagi mablag'larni legallashtirishga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan misollarni tahlil qilish, shuningdek, soha vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari ko'ra, sohada **JFODL xavfi yuqori** darajasini saqlab qolmoqda.

ZAIFLIK LARNING XUSUSIYATLARI

Zaiflik - JFODL/TM/OQQTM bilan bog'liq xavflarning yuzaga kelishiga yoki amalga oshishiga sharoit yaratuvchi ichki va tashqi omillar, nazoratdagi kamchiliklar hamda himoya mexanizmlarining yetarli emasligi hisoblanadi.



Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasining zaifligi tahdidlarni amalga oshirishga imkon beruvchi yo'llarning qulayligi va ko'rinishi bo'yicha baholash o'tkazildi.

Asillik inspeksiyasi tomonidan olib borilgan tizimli ishlar natijasida "[SHAXSIY KABINET](#)" platformasida ro'yxatdan o'tgan soha ishtirokchilari soni va qamrovi sezilarli darajada oshib, 2024-yilga nisbatan 40 foizlik o'sish qayd etildi. Biroq, so'nggi uch yil ichida JFODL va TMga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etish darajasi yaxshilanganiga qaramasdan, soha ishtirokchilarining maxsus vakolatli organ bilan shubhali operatsiyalar yuzasidan axborot almashish bo'yicha hamkorligi kutilgan natijalarga to'liq erishmagan.

ShOX ⁷soha ishtirokchilari tomonidan [Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-son qarori 1-ilovasiga](#) asosan, JFODL, TM va OQQTM qarshi kurashish bilan bog'liq ma'lumotlar va hujjatlarni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etishlari belgilangan bo'lsada, soha ishtirokchilaridan ShOX yuborilmaganligi ma'lum qilindi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida ShOX yuborish darajasi yetarli emasligi kuzatilmoqda. Mazkur holat, avvalo, soha subyektlarining noqonuniy moliyaviy operatsiyalar sxemalari, shubhali operatsiyalarning odatiy belgilari hamda JFODL/TM bilan bog'liq tavakkalchiliklar bo'yicha xabardorligi yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Amaldagi talablarga ko'ra, jismoniy shaxs tomonidan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni bir martalik yoki ketma-ket 3 oy davomida bir necha marotaba xarid qilishi, agar operatsiyalar umumiy summasi bazaviy hisoblash miqdorining 600 baravaridan oshsa, ShOX yuborishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

⁷ Maxsus vakolatli davlat organga shubhali operatsiya haqida xabar yuborish

Biroq amaliyotda ayrim subyektlar o'zaro bog'liq operatsiyalarni aniqlash va monitoring qilish mexanizmlarini yetarli darajada qo'llamayotgani sababli ShOXlar taqdim etilmagan.

Shuningdek, ayrim savdo subyektlari tomonidan naqd puldagi operatsiyalarni yashirish, hisob-kitoblarni norasmiy tarzda amalga oshirish hamda ayrim hollarda xarid cheklarining taqdim etilmasligi holatlari uchragan. Mazkur holatlar operatsiyalar ustidan nazoratni murakkablashtirib, shubhali operatsiyalarni aniqlash imkoniyatini pasaytiradi.

Natijada qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish maqsadida foydalanish xavfi ortadi.

JFODL va TM sxemalarida sohadan foydalanish tavakkalchilik darajasi



"Sohada JFODL xavfining yuqoriligi — tizimli korrupsiya, o'g'rilik va firibgarlik orqali topilgan jinoiy daromadlarning aynan shu tarmoqdagi yashirin aylanmalar ko'magida mutlaq qonuniylashtirilayotganidan va milliy iqtisodiy xavfsizlikka to'g'ridan-to'g'ri tahdid solayotganidan dalolat beradi.



Sohadagi TM tahdidi pastligi, oldingi baholash hisobotlarida ham keltirilgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda soha ishtirokchilari ekstremistik faoliyat, terrorizmga aloqador shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar bilan yoki OQQTM aloqador operatsiyalarni amalga oshirganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi, shu jumladan, nazorat doirasida soha ishtirokchilari tomonidan shu kabi aloqalar o'rnatilganligi aniqlanmagan.

Mavjud ma'lumot manbalariga, shuningdek, Asillik inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomasiga ko'ra, soha vakillarining qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidan **TM** maqsadlarida foydalanish **xavfi past** degan xulosaga kelish mumkin.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida zaifliklari asosan quyidagilarga bog'liq:

- naqd pul aylanmasining yuqoriligi;
- operatsiyalarni yashirish imkoniyatining mavjudligi;
- xaridorlarni identifikatsiya qilish va operatsiyalarni monitoring qilish tizimlarining yetarli emasligi;

ShOX yuborish amaliyotining sustligi;
ichki nazorat tizimlarining zaifligi;
noqonuniy savdo va norasmiy aylanma ulushining yuqoriligi.

Shuningdek, Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida mavjud zaifliklarga ayrim savdo subyektlari va iste'molchilarning qonunchilik talablariga yetarli darajada rioya qilmasligi ham sabab bo'lmoqda. Amaliyotda ko'plab holatlarda asosiy e'tibor operatsiyani imkon qadar tezroq va qulay narxda amalga oshirishga qaratilib, hisob-kitoblarni rasmiylashtirish, xarid chekini taqdim etish, mijozni identifikatsiya qilish yoki naqdsiz to'lovlardan foydalanish kabi talablar ikkinchi darajali masala sifatida qaralmoqda.

Ayniqsa, naqd puldagi hisob-kitoblarga yuqori qiziqish mavjudligi operatsiyalarni yashirish, norasmiy aylanmalarni shakllantirish hamda shubhali operatsiyalarni aniqlashni murakkablashtirmoqda. Natijada sohada JFODL bilan bog'liq tavakkalchiliklar kabi omillar bilan bog'liq hisoblanadi.

Mazkur holatlar sohani jinoiy daromadlarni legallashtirish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalar uchun jozibador yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasining nomutanosibligini inobatga olgan holda, JFODL maqsadlarida foydalanish xavfi namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi segmentlarni ajratish mumkin:

1. Zargarlik buyumlari savdosi (chakana, ulgurji):

- chet eldan sotish maqsadida keltirilgan xorijda ishlab chiqarilgan buyumlarga, Asillik inspeksiyasining davlat asillik darajasi tamg'asining izi majburiy tartibda qo'yilmasdan yoki ularga mahalliy ishlab chiqaruvchining shaxsiy tamg'asi izi va belgilangan namunadagi asillik darajasi belgisini tushirish orqali realizatsiya qilinishi;

2. Zargarlik buyumlari ishlab chiqarish:

- kelib chiqishi manbasi noma'lum bo'lgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan zargarlik va boshqa buyumlarini ishlab chiqarish;
- kontrabanda zargarlik buyumlariga (o'z ishlab chiqargan mahsuloti emas) shaxsiy tamg'asi izi va belgilangan namunadagi asillik darajasi belgisini tushirish;

3. Zargarlik va boshqa buyumlarning parcha va chiqindilarini sotib olish:

- qimmatbaho metallarning parchalari va chiqindilarini sotib olish faoliyatini boshlaganlik to'g'risida xabarnoma yubormasdan hamda tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat yuritish, shuningdek, rasmiy bojxona tartib-qoidalariga rioya qilinmasdan, hujjatlashtirilmagan yoki noqonuniy yo'l bilan respublika hududiga olib kirilgan zargarlik buyumlari va ularning chiqindilarini legallashtirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish;

- sotib oluvchi tomonidan mijozni identifikatsiya qilish jarayonida lozim darajada tekshiruv choralarining qo'llanilmasligi;

4. Zargarlik buyumlarini ta'mirlash:

- buyurtma asosida qabul qilingan xomashyolardan xosil bo'lgan parcha va chiqindilarni hisobini yuritish va ishlab chiqaruvchi yoki affinaj korxonalariga topshirmaslik.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida O'zbekiston Respublikasining JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchiligi talablariga rioya etish darajasining yetarli emasligi mazkur sohaning JFODL maqsadlarida foydalanilishi bilan bog'liq tavakkalchiliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Ko'rilgan (ko'rilayotgan) choralar

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida zaifliklar va tavakkalchiliklarni kamaytirish maqsadida Asillik inspeksiyasi tomonidan quyidagi choralar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi [PF-104-son Farmoni](#)ga asosan, Yarim tayyor zargarlik buyumlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqish tartibini belgilovchi, tayyor va yarim tayyor zargarlik buyumlari tushunchasi keng yoritilgan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi [281-son qarori](#) tasdiqlandi;

O'zbekiston Respublikasi [MJtK](#)ning 219-moddasiga mansabdor shaxslar uchun belgilangan jarima miqdori bazaviy hisoblash miqdorining **ellik baravarigacha** oshirildi.

Yuqoridagi zaifliklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

Sohada ShOX yuborish samaradorligini oshirish maqsadida ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlari va mas'ul xodimlarning amaliy ko'nikmalarini oshirish, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar savdosini bosqichma-bosqich naqdsiz hisob-kitob shakliga o'tkazish masalasini ko'rib chiqish;

JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish bo'yicha talablarni litsenziyalash, ruxsat berish hamda xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlarining talab va shartlari tarkibiga kiritish;

JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish sohasidagi xavflar va qonun hujjatlarining talablari to'g'risida soha vakillarining xabardorligini oshirishga qaratilgan tizimli tadbirlarni davom ettirish;

Asillik inspeksiyasining nazorat (tekshiruv) faoliyati amaliyotida profilaktika elementlarini yanada rivojlantirish.

XULOSA

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida amalga oshirilgan tavakkalchiliklarni baholash natijalari mazkur sohada JFODL va TM hamda predikat jinoyatlar bilan bog'liq xavf va zaifliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Baholash davomida aniqlangan asosiy tahdid va zaifliklar Asillik inspeksiyasi tomonidan JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan

nazorat (tekshiruv) tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishda asosiy tavakkalchilik omillari sifatida inobatga olinadi.


Mazkur hisobot qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasi ishtirokchilari uchun tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va kamaytirishga qaratilgan muhim metodik manba hisoblanadi. Shu munosabat bilan, soha ishtirokchilariga hisobotda keltirilgan xulosalar, tavakkalchilik indikatorlari hamda aniqlangan shubhali operatsiyalar belgilarini JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish bo'yicha boshqa metodik materiallar bilan birgalikda muntazam o'rganib borish tavsiya etiladi.

Shu bilan birga, hisobotda qayd etilgan xavf darajalari doimiy va o'zgarmas tusga ega emas. Zamonaviy amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilar noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishning yangi usullarini ishlab chiqish, mavjud nazorat mexanizmlarini chetlab o'tish hamda yashirin moliyaviy sxemalarni takomillashtirish choralarini muntazam ravishda davom ettirmoqda. Ayniqsa, noqonuniy naqd pul aylanmasi, norasmiy hisob-kitoblar, identifikatsiya qilinmagan xaridorlar orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarning kontrabandasi bilan bog'liq xavflar saqlanib qolmoqda.

Mazkur holatlar soha ishtirokchilaridan JFODL va predikat jinoyatlarining zamonaviy usullari, shubhali operatsiyalar alomatlari hamda tavakkalchiliklarni boshqarish mexanizmlari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarni doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi. Shu maqsadda, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish, mas'ul xodimlarning malakasini oshirish, ShOX yuborish samaradorligini ta'minlash hamda mijozlarni identifikatsiya qilish amaliyotlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bank muassasalarida xorijiy valyuta xarid qilishda mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjat talab etilishi amaliyotiga o'xshash tarzda, zargarlik buyumlarini xarid qilish jarayonida ham xaridorlarni identifikatsiya qilish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish bo'yicha talablarni litsenziyalash, ruxsat berish hamda xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlarining talab va shartlari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur yondashuv soha subyektlari tomonidan qonunchilik talablariga rioya etilishini kuchaytirish, faoliyatning shaffofligini oshirish hamda noqonuniy moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida O'zbekiston Respublikasining JFODL, TM va OQQTMGa qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchiligi talablariga rioya etish darajasini yanada oshirish, sohada shaffoflikni ta'minlash, zamonaviy tavakkalchiliklarga mos nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni keng qo'llash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.



Lizing va auditorlik tashkilotlari faoliyatida, shuningdek, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar amalga oshiruvchi shaxslar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Ishchi guruh yig'ilishining 2026-yil "___"-mayidagi 7-sonli Bayonnomasiga 3-ILQVA